

KO'PYOQLIKLAR MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLANILISHI

Ismatov U. R.

Samisi oliy matematika kafedrasи o'qituvchisi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: Ta'lif, motivatsiya, jamoa, zamonaviy uskuna, insert, domino, fan, tinglash.

Annotation

Mazkur maqolada ko'pyoqliklar mavzusining qisqacha mazmuni va mavzuni o'qitishda qo'llaniladigan interfaol metodlardan "Insert" metodining mavzuga qo'llanilishi batafsil yoritib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyoсидан bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, avvalo ustozlarning o'zi ana shunday talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo'lishi lozim, Shuning uchun ham o'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifalar o'ta murakkab, mas'uliyatli va ayni paytda sharaflidir.

Jamiyat rivojining bugungi kundagi bosqichi bevosita texnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnologik jarayonlar har bir sohaga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ta'lif sohasigda ulardan foydalanish o'qitish sifatini oshirishga, o'quvchilarining fikrlash doirasini kengaytirish, ularda mustaqil o'zlashtirish faoliyatini kuchaytirish hozirgi zamonning dolzarb masalasiga aylanib qoldi. Ushbu masalarni hal etishda interfaol metodlarning o'rni katta.

Interfaol metodlar ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchining o'zaro faoliyatini ta'minlovchi, ularni faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta'lif olishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga bo'lgan metodlardir. Ta'lif va tarbiya jarayonida ta'lif beruvchi tomonidan interfaol metodlarni o'rinli, maqsadli, samarali qo'llash ta'lif oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

"Kopyoqliklar" mavzusini o'qitishda turli interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Misol tariqasida quyidagi interfaol metodlarni ko'rib chiqamiz.

"Insert" metodi. Insert metodi – mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni bir tizimga keltirishga imkon yaratadi. Oldindan olingan ma'lumotlarni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkoniyat yaratadi. O'qish vaqtida olingan ma'lumot yakka tartibda taqsimlanadi: matnda belgi qo'yilgan mos ravishda jadval ustunlariga "joylashtiriladi": "+" berilgan ma'lumotga bor bilimga mos keladi; "-" haqidagi bilimga qarama-qarshi; "*" yangi ma'lumot sanaladi; "?" tushunarsiz qo'shimcha ma'lumot.

Ma'lumotlar	+	-	*	?

Metodni amalga oshirish: yangi o'tiladigan mavzu bo'yicha har bir talabaga o'qib o'rganishlari uchun bir yoki bir yarim betdan iborat matn tarqatiladi. Talabalar matnni diqqat bilan o'qib chiqib, yuqorida berilgan belgilarni har bir xat boshiga mos ravishda qo'yib chiqishlari kerak. Belgilangan vaqt tamom bo'lgandan keyin o'qituvchi matnlarni yig'ib oladi va belgilarni qarab muhokama qiladi va shu asosida yangi mavzu mazmuni bayon etiladi

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch

Insert metodining bosqichlari:

1. O'qituvchi mavzuga oid, yangi axborotlarni o'z ichiga olgan matn tayyorlaydi.
2. O'qituvchi mashg'ulotni olib boorish tartibini tushuntiradi.
3. Har bir ishtirokchilarga matnlar tarqatiladi va belgilari qo'yish taklif etiladi.
4. Vazifalarni o'qituvchi muhokama qiladi, berilgan vazifalar bo'yicha javoblar umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

"Insert" metodining mavzuga qo'llanilishi:

Talabalarga mavzuning mazmuni yoritilgan material beriladi. Talabalar yakka tartibda yoki kichik guruhlarda matnni diqqat bilan o'qib chiqib, oldindan kelishilgan belgilarni qo'yishlari talab etiladi.

Talabalarga beriladigan tarqatma material mazmuni: **Prizma:**

!Ta'rif: Yon yoqlari to'rburchaklardan va asosi ko'pburchakdan iborat bo'lgan ko'pyoqlik **prizma** deyiladi. Prizmani barcha qirralarini kesuvchi parallel tekisliklarda hosil bo'lgan ko'pburchaklar prizmaning asoslari deb ataladi.

*Yon qirralari asosiga nisbatan og'ma yoki perpendikulyar bo'lsa, prizma ham mos ravishda og'ma yoki to'g'ri prizma deb ataladi.

?Asosi muntazam ko'pburchak bo'lgan prizma, muntazam prizma deb ataladi.

Dars so'ngida berilgan vazifalar bo'yicha javoblar umumlashtiriladi va xulosa qilinadi

Ko'pyoqliklar:

!Ta'rif: hamma tomonidan tekis ko'pburchaklar bilan chegaralangan geometrik figura **ko'pyoqlik** deyiladi.

Piramida:

!Ta'rif: Yoqlaridan biri tekis ko'pburchak bo'lib, qolgan yoqlari esa umumiyligida uchga ega bo'lgan uchburchaklardan tuzilgan ko'pyoqlik **piramida** deyiladi.

*Ko'pburchak piramidaning asosi va uchburchaklar uning yon yoqlari deb ataladi. Yon yoqlarning umumiyligida piramidaning ham uchi hisoblanadi va u asos tekisligida yotmaydi.

?Asosi muntazam ko'pburchakli piramida muntazam piramida deb ataladi. Piramida balandligi asosining markazidan o'tib, unga perpendikulyar bo'lsa, uni to'g'ri piramida, perpendikulyar bo'lmasa og'ma piramida deb ataladi.

Xulosa: Oliy o'quv yurtlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyaga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarни bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarni ta'minlaydi. An'anaviy ta'lim metodlari asosida mavzuning mazmuni ta'lim beruvchi tomonidan ilmiy asoslangan holda turli misol va amaliy tajribalardan kelib chiqib tushuntirilsa, Noan'anaviy ta'limning interfaol metodlari olingan bilimlarni mustahkamlashga, o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga, faol ishtirok etishga, o'z tengdoshlari bilan birgalikda vazifalarni bajarish, o'zgalar fikrlarini hurmat qilishga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalishtirish.Uslubiy qo'llanma. T.: "Iqtisodiyot", 2009 y.
2. DjanaliyevaG.A., To'laganov M.R. Maktabdan tashqari ta'limda o'qitish metodlari. – T.: "ADIB" nashriyoti. 2014 y.